



JONGELDI ZAVOD TIPIDAGI QORA RANGLI QORAKO'L QO'ZILARINING KONSTITUTSIYA TIPLARI

D.Maxammatova

tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619318>

Annotatsiya. Maqolada Jongeldi zavod tipidagi qora rangli qorako'l qo'zilarining turli gul tipiga xos bo'lgan sovliqlardan olingan avlodlarning konstitutsiya tiplari bo'yicha baholash natijalari yoritilgan. Olingan natijalarga biometrik ishlov berilib, raqamlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Qorako'l qo'ylari, mahsuldorlik, konstitutsiya tipi, zavod tipi.

Аннотация. В статье освещены результаты оценки типов конституции ягнят Джонгелдинского заводского типа, полученного от черных каракульских овец разных завитковых типов. Полученные результаты биометрически обработаны и излагаются на основе цифр.

Ключевые слова. Каракульские овцы, продуктивность, конституциональный тип, заводской тип.

Abstract. The article highlights the results of the evaluation of the types of constitution of lambs of the Jongeldinsky factory type, obtained from black Karakul sheep of different curl types. The results obtained are biometrically processed and presented on the basis of figures.

Key words. karakul sheep, productivity, constitutional type, factory type.

Qorako'lchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan hisoblanib, hozirgi kunda qorako'l qo'ylari respublikamizda mavjud yaylov yerlarining qariyb 83 foiz qismida urchitilib kelinmoqda. Qorako'l qo'ylari boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlaridan keskin iqlim sharoitlariga moslashganligi hamda ushbu sharoitda yetarlicha mahsulot bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini baholashda konstitutsiya tiplarining ahamiyatini alohida qayd etish lozim, aytish mumkinki, mustahkam konstitutsiya tipidagi hayvonlar boshqa tip vakillariga nisbatan yuqori mahsuldorlikka erishadi. Konstitutsiya hayvonlarning tashqi muhitga moslashishi, shuningdek himoya vositasi sifatida ham qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Har xil juftlash natijasida olingan qo'zilarining o'sish davridagi tirik vazn dinamikasi ularning konstitutsiya tiplariga hamda yaylovdagi ozuqabop o'simliklar turi va to'yimlilikiga bog'liq [1].

Har xil tipidagi qorako'l qo'ylarining konstitutsiya tipi va tirik vazni orasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi, mustahkam konstitutsiya tipidagi





qorako'l qo'ylarining tirik vazni qo'pol va nozik konstitutsiya tipidagi tengqurlariga nisbatan yuqoriroq bo'ladi [2].

Ta'kidlanishicha turli konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarining irsiy xususiyatlarini avlodlariga o'tkazishida turli farqlanishlar kuzatiladi va mustahkam konstitutsiya tipidagi qo'ylar avlodlariga irsiy belgilarini boshqa tipdagi tengqurlariga nisbatan yaxshi o'tkazadi [3].

Tadqiqotning maqsadi. Jongeldi zavod tipidagi qora rangli qorako'l qo'zilarining turli gul tiplariga xos sovliqlardan olingan avlodlarning konstitutsiya tipini o'rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Tadqiqotlar Buxoro viloyati, Peshku tumani 'Jongeldi qorako'lchilik MChJ da urchitiluvchi jongeldi zavod tipiga mansub qora rangli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlar bilan olib borildi. Avlodlarning tirik vazni, eksteryer ko'rsatkichlari, rangi va jun-tolasi sifati umumqabul qilingan zootexniyaviy usullar yordamida, shuningdek "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma [4] asosida ko'z bilan ko'rish, millimetrli lineyka hamda tirik vazni o'lchov tarozisida o'lchanib, qo'ylarning genotipik holati aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida matematik ishlov berilib, o'rtacha arifmetik qiymati ($\bar{X}$) hamda uning xatosi (S_x) aniqlandi [5].

Tadqiqot natijalari. Ma'lumki, qorako'l qo'ylarini konstitutsiyasiga baho berishda asosan tashqi tuzilishiga, eksteryeriga qarab aniqlanadi. Qorako'lchilikda nozik, mustahkam va dag'al konstitutsiya tiplaridagi qo'ylar urchitiladi. Ushbu konstitutsiya tiplariga mansub qo'ylar o'zining eksteryer ko'rsatkichlari, suyakdorligi hamda tana tuzilish indekslariga qarab farqlanadi. Tadqiqotlar davomida turli gul tipiga mansub qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning konstitutsiya tiplariga taqsimlanishi o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Jongeldi zavod tipidagi qora rangli qorako'l qo'zilarining konstitutsiya tiplariga taqsimlanishi, %

Gul tiplari	n	Konstitutsiya tiplari		
		Mustahkam	Dag'al	Nozik
		$\bar{X} \pm S_x$	$\bar{X} \pm S_x$	$\bar{X} \pm S_x$
Yarimdoirasimon	342	54,4 $\pm$ 2,69	28,0 $\pm$ 2,43	17,6 $\pm$ 2,05
Qovurg'asimon	102	48,0 $\pm$ 4,95	31,4 $\pm$ 4,59	20,6 $\pm$ 4,00
Yassi	59	54,2 $\pm$ 6,48	22,0 $\pm$ 5,39	23,8 $\pm$ 5,54



O'sikgul	27	37,0±9,29	44,4±9,56	18,6±7,49
----------	----	-----------	-----------	-----------

Jadval ma'lumotlari mustahkam konstitutsiya tipiga xos avlodlar chiqimining yuqori ko'rsatkichi yarimdoirasimon gul tipiga ($54,4 \pm 2,69$) to'g'ri kelishini ko'rsatgan bo'lsa, yassi va qovurg'asimon gul tipidagi avlodlarda bu ko'rsatkich mos ravishda ($54,2 \pm 6,48$) va ($48,0 \pm 4,95$) biroz pasayganini ta'kidlash lozim, shuningdek o'sikgul tipiga oid avlodlarda mustahkam konstitutsiya tipiga xos avlodlarning nisbatan kam chiqishi ularning jun-tolasi sifati va tashqi eksteryer ko'rsatkichlaridagi pasayishlar bilan izohlanadi. Dag'al konstitutsiya tipiga xos avlodlar chiqimida boshqa tip vakillariga nisbatan o'sikgul tipidagi sovliqlardan olingan avlodlar biroz ustunlik qilgan, buni ushbu tip vakillaridagi sovliqlarning eksteryer ko'rsatkichlari nisbatan qo'pol, yirik jussali bo'lishi bilan izohlash mumkin. Jadval ma'lumotlaridan aytish mumkinki, nozik tipdagi avlodlar chiqimida sezilarli farqlanishlar kuzatilmagan.

Olingan natijalar nisbiy bo'lib, paratipik omillar (oziqlantirish va asrash) ta'sirida ma'lum darajada o'zgarishga uchrashi mumkinligini aytish lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari bo'yicha xulosa qilish mumkinki, turli gul tipiga oid sovliqlardan olingan avlodlarning konstitutsiya tiplari bo'yicha mustahkam konstitutsiya tipi yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. Bundan jongeldi zavod tipidagi qora rangli qorako'l qo'ylarining qo'chqorlari hamda sovliqlari mustahkam genotipga egaligi, shuningdek xususiyatlarini avlodlarga kuchli o'tkazishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shaptakova L.E., Djambilov B.X., Shaptakov E.S. Turli konstitutsional tipda juftlashdan olingan qora qorako'l qo'zilarining o'sish va rivojlanish xususiyatlari. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali, 2021 y. №6. 40-41 b.
2. Kazakbayev B.S., Janabayev A.J. Konstitutsiya tipi har xil qorako'l qo'ylarining tirik vazni ko'rsatkichlari. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali 2020 y. №6. 33-34 b.
3. Bazarov S.R., Yorqulov H., Nomozova I., Urinova D. Turli konstitutsiya tipidagi sur rang qo'ylarning genetik tavsifi. Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. 2020 y. №2. 29-30 b.
4. Юсупов С.Ю. ва бошқалар. "Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш)" бўйича қўлланма. Тошкент 2015 й. 31 б.
5. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. 256 с.





6. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – С. 127-131.
7. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – Т. 10. – С. 130-132.
8. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019, 139.
9. Хатамов А. Х. Мясная продуктивность каракульских овец каракалпакского сура различных этологических типов //Овцы, козы, шерстяное дело. – 2018. – №. 4. – С. 26-26.
10. Kh K. A. Growth and Development of Young Karakul Sheep of Different Ethological Types //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – Т. 12. – С. 22-25.

